

## **Hamkorlik memorandumumi**

**Parkent sh.**

**“10” sentabr 2022 yil**

**Toshkent viloyati Parkent tuman 1-34-29-son Bolalar musiqa va san'at maktablari va Parkent tuman Barkamol avlod maktabi tomonidan to'rt tomonlama hamkorlik kelishuvi quyidagi mazmunda imzolandi.**

### **Memorandum predmeti**

1.1 Ushbu memorandum predmeti taraflar o'rtasida ta'lim, konsalting, malaka oshirish, shuningdek, ilm-fan, tadqiqot va o'zaro qo'llab-quvvatlash hamkorligidir.

1.2 Ushbu memorandum taraflarning o'zaro hamkorligini umumiy tamoillarini belgilaydi va taraflarga moliyaviy majburiyatlar yuklamaydi. Hamkorlik ko'lami va doirasini kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu memorandumni amalga oshirishda taraflar o'zlarining yoki xalqaro tashkilotlar fond mablag'laridan foydalanishlari mumkin.

### **Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari**

2.1 Taraflar o'z vakolatlari doirasida quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik qiladilar.

2.1.1. Hamkorlikda Barkamol avlod maktabi bilan madaniyat va san'at yo'nalishlarida to'garaklar uchun dastur va qo'llanmalar ishlab chiqish.

2.1.2. O'zaro manfaatli sohalarda ijodiy - ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish.

2.1.3. Barkamol avlod bolalar maktablarida tashkil etilayotgan onlayn mashg'ulotlarda madaniyat sohasida professional mutaxassislarni amaldagi qonunchilikka muvofiq, shartnoma asosida jalb qilish.

2.1.4. O'zaro kelishuv bo'yicha boshqa yo'nalishlarda hamkorlik qilish.

### **Hamkorlik shakllari**

3.1. Taraflar manfaatlariga daxildor rejalashtirilgan tadyuirlar to'g'risida ma'lumot almashish

3.1.1 Konferensiyalar, seminarlar, treninglarni birgalikda o'tkazish, taraflarning mintaqaviy va xalqaro tadbirlari ishtirok etish.

3.1.2. Hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun ma'sul shaxslarni o'z xodimlari orasidan belgilash.

3.2. Memorandumda nazarda tutilmagan hamkorlik shakllari qo'shicha bitim yoki alohida shartnomalar bilan tasdiqlanadi.

3.3. Taraflar ushbu memorandumni amalga oshirishda bir-birlaridan kerakli ma'lumotlar so'rashga haqlidir.

### **Hamkorlik shartlari**

4.1. Ushbu memorandum taraflarga moliyaviy majburiyatlar yuklamaydi.

4.2. Taraflar tomonidan bir-biriga taqdim etilgan ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi

## Yakuniy shartlari

5.1.Ushbu Memorandumdan kelib chiqqan nizolar va nomuofliqliklar taraflarning kelishuvi orqali xal etiladi.

5.2.Ushbu Memorandumga o'zgartirishlar va qo'shimchlar taraflarning o'zaro kelishuvi bo'yicha taraflarning vakolatli vakillari tomonidan qo'shimcha bitimlarni imzolash yo'li bilan kiritilishi mumkin.

5.3.Ushbu memorandum quyida ko'rsatilgan har to'rt taraf tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va yozma bildirishnom orqali bekor qilgunga qadar amal qiladi. Bunday xolda ,ushbu Memorandum taraflardan biri boshqa tarafning yoma xabornomasini olgan kundan boshlab olti oy o'tgach kuchuni yo'qotadi.

5.4.Ushbu Memorandum bir xil kuchga ega bo'lgan ikki nusxada o'zbek tilida tayyorlngan.

6.Taraflar imzosi

Toshkent viloyati

Parkent tumani

Barkamol avlod bolalar maktabi

Direktori: M. Muhammadaliev



Toshkent viloyati

Parkent tumani

1-son Bolalar musiqa va san'at maktab

Direktori : U.Malikov



Toshkent viloyati

Parkent tumani

29-son Bolalar musiqa va san'at maktabi

Direktori : Q.To'qsonov



Toshkent viloyati

Parkent tumani

34-son Bolalar musiqa va san'at maktab

Direktori : U. Rahmonov

